

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(52 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(52 KB\)](#)

Qoraqalpog`iston Respublikasi bo`yicha davlat ro`yxatiga olingan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining faoliyati to`g`risida.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatni yuritish bo`yicha qabul qilingan 50 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan "Chet el investitsiyalari to`g`risida"gi, "Investitsiya faoliyati to`g`risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to`g`risida"gi Qonunlarni aytib o`tish lozim. 2016 yil davomida respublika bo`yicha jami 10 ta yangidan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar davlat ro`yxatiga olingan bulib, 2017 yilning 6 oyi davomida 4 ta korxonalar ro`yhatga olindi. Natijada, respublikaning Nukus shahri va barcha tumanlarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ro`yxatga olingan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi Nukus shahri (18 ta), Qung`irot (8 ta) va Xujayli (7 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

Bular 3 mingga yaqin kishi ish bilan ta`minlangan bulib, 2016 yilda mazkur korxonalar tomonidan 1 970 mlrd. so`mdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarilib xizmatlar ko`rsatilgan. Shundan amalga oshirilgan eksport hajmi 373,7 mln. dollarni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar qatorida polietilen va polipropilen granularlar, qizilmiya ildizi ekstrakti, ip kalava, natriy sul`fati, artemiya tsistalari va avtomashinalarga yoqilg`i gaz qo`yish, tibbiyot, mehmonxona xizmatlari ko`rsatilganligini aytib o`tish lozim.

Mazkur korxonalar dunyoning 15 dan ortiq chet el davlatlari investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan bulib, Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Qozog`iston va boshqa davlatlar investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan. Masalan Qo`ng`irot tumanida ishga tushirilgan polietilen va polipropilen granularlarini ishlab chiqarish bo`yicha O`zbekiston va Janubiy Koreya investitsiyalari ishtirokidagi "Uz-Kor Gas Chemical" qo`shma korxonasi, Amudaryo tumanidagi ish kalava ishlab chiqaruvchi "Amudaryotex" Buyuk Britaniya chet el korxonalari.

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)